

Konteynerlarga ega бўлган va/yoki konteynerlarsiz yuridik shaxslar bilan qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarini kўrsatish bōyicha

## SHARTNOMA № 4/1

26 yanvar 2022y

Nukus shahri

Shomanayrayonimektepkeshkekengibilimlendiriwbolimi (keyingi ōrinlarda - "BUYURTMACH") nomidan F.Ubaydullaev \_\_ Ustav yoki Nizom asosida xizmat koruvchi bir tomondan va QR "Toza hudud" DUK (keyingi ōrinlarda - "IJROCh") nomidan rahbari O.Genjebaev Ustav asosida ish koruvchi boshqa tomondan, birgalikda "Taraflar", alohida esa "Taraf" deb ataluvchilar ushbu shartnomani quyidagilar tōg'risida tuzdilar:

### 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Ushbu shartnoma asosida "BUYURTMACH" va "IJROCh" ōrtasida qattiq va/yoki suyuq chiqindilarni (QMCh), (SMCh) hamda xujalik suyuq chikindilarni (XSCh) yig'ish (tōplash) va olib ketish xizmatlarini kўrsatish bōyicha tōg'ridan-tōg'ri xōjalik aloqalar ōrnatiladi.

"BUYURTMACH" ning topshirigiga kōra "IJROCh" («Toza hudud» DUK filiallari) qattiq chiqindilarni yig'ish (tōplash), olib ketishni \_\_\_\_\_ haftada bir marta \_\_\_\_\_ dona konteyner (quvvati 750 L 1, m3, 7 m3, 4 t. keragini yozish kerak) "BUYURTMACH"ning manzili: \_\_\_\_\_ dan olib ketish majburiyatini oladi."BUYURTMACH" ōz navbatida «Yōl varaqasi»da yoki «Buyurtmashi»da (konteynerlarga ega bulgan yuridik shaxs) belgi quyib, natijalarini qabul qilish majburiyatini oladi.

"BUYURTMACH"ning topshirigiga kōra "IJROCh" (QR «Toza hudud» DUK filiallari) \_\_\_\_\_ manzilda joylashgan ahlal yig'ish ōrnidan (AYŌ) qattiq va maishiy chiqindilarni yig'ish (tōplash) va olib ketishni ōz zimasi ga oladi, va "BUYURTMACH" (konteynerga ega bōlmagan yuridik shahs) kōrsatilgan xizmatlar uchun haq tōlashni ōz zimasi ga oladi.

"BUYURTMACH" ning topshirigiga kōra "IJROCh" (QR «Toza xudud» DUK filiallari) "BUYURTMACH" ning hududidan (manzili) \_\_\_\_\_ ixtisoslashtirilgan transport vositalari bilan qattiq maishiy chiqindilarni yig'ish (tōplash) va olib ketish xizmatini kўrsatish majburiyatini oladi va "BUYURTMACH" ōz navbatida «Yōl varaqasi»da yoki «Buyurtmasi»da belgi qōyib, natijalarini qabul qilish majburiyatini oladi.

1.2. Umumiy tōplangan qattiq maishiy chiqindilar (QMCh) oyiga \_\_\_\_\_ m3da, \_\_\_\_\_ tonna, yiliga \_\_\_\_\_ m3, \_\_\_\_\_ tonnada hisoblanadi.

"IJROCh" (QR «Toza hudud» DUK filiallari) "BUYURTMACH"ga alohida haq tōlash evaziga qōshimcha xizmatlar kōrsatishni talab qilishga haqli emas.

### 2. KŌRSATILGAN XIZMATLAR UCHUN HAQ TŌLASH TARTIBI

2.1. Shartnoma tuzish vaqtiga 1 m3 QMCh-ni olib ketish tarifi \_\_\_\_\_ 52900 sōmni, 1 tonna suyuq chiqindilarni olib kelish tarifi \_\_\_\_\_ sōmni tashkil etadi.

2.2. Shartnomaga muvofiq umumiy kōrsatilgan xizmatlar haqqi miqdori **16240300 (On alti million eki juz qiriq min ush juz )** sumdi tashkil etadi.

Qattiq va/yoki suyuq maishiy chiqindilarni olib ketish bōyicha xizmatlar kōrsatish tarifi ōzgartirilganda "IJROCh" (QR «Toza hudud» DUK filiallari) bu haqda ommaviy axborot vositalari orqali ularning kuchga kirishidan 15 kun oldin mālum qiladi.

2.3. "BUYURTMACH" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.11.2018 yildan №5580-sonli farmonining "v" moddasi 2 bandiga muvofiq qattiq va/yoki suyuq chiqindilarni olib ketish uchun taqdim etilgan xizmatlar qiymatining 100% ini oldindan tōlab berishi lozim.

2.4. Qattiq maishiy chiqindilarni olib ketish xizmatlari uchun haq tūlash, tegishli davrlarda amaldagi qattiq maishiy chiqindilarni olib ketish tarifiga kōra amalga oshiriladi.

2.5. Yuridik manzil, korxonasi nomi, joriy hisobvaraği yoki QMChlarni olib ketish hajmi o'zgargan taqdirda tomonlar boshqa tomonni 10 kun ichida yozma ravishda xabardor qilishi shart.

2.6. Sifatsiz yoki belgilangan muddatdan ortiq uzilishlar bilan QMChlarini olib ketish bōyicha xizmatlar kōrsatilganda, xizmatlar uchun tōlov miğdori tegishli muddatga kamaytiriladi.

2.7. Xizmatlar sifatini baholashda, xizmatlar kōrsatilmaganligini yoki sifatsiz xizmatlar kōrsatilganligini tasdiqlovchi dalolatnoma tuziladi va "BUYURTMACH" hamda "IJROCh" vakili tomonidan imzolanadi.



Xizmatlar kórsatilmaganligini yoki sifatsiz xizmatlar kórsatilganligi tug'risida dalolatnoma qattiq va/yoki suyuq chiqindilarni olib ketishda xizmatlar uchun tólov miqdorini qayta hisoblash uchun va "IJROChI" tomonidan óz majburiyatlarini buzganlik uchun tólashga asos bóladí.

"IJROChI" "BUYURTMACHI" ning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga zarar yetkazsa, zarar yetkazilgan fakti qayd etilgan "IJROChI" va "BUYURTMACHI"ning vakillari tomonidan imzolangan dalolatnoma tuziladi.

Agar "IJROChI"ning vakili etib kelmasa, dalolatnomada "BUYURTMACHI" va fuqarolarning ózini ózi boshqarish organi vakilining imzosi kifoya.

"BUYURTMACHI"ning va "IJROChI"ning vakili imzosi mavjud bólsa, dalolatnoma yuridik kuchka ega bóladí.

Agar "IJROChI"ning vakili dalolatnomaga imzo qóyishdan bosh tortsa, u holda mazkur dalolatnomani imzolashdan bosh tortish sabablarin kórsatib yozma tushuntirish berishi lozim. Aks holda, "BUYURTMACHI" sud qarori chiqarilgunga qadar QMChni olib ketish xizmatlari uchun pul tólashini tóxtatib turishga haqli.

### 3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. "IJROChI" shartnoma majburiyatlariga rioya etmaganlik uchun "BUYURTMACHI"ni javobgarlikka tortish choralarini kórishga, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan (jarima yoki penya) tólovni talab qilishga haqli. "IJROChI" qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bólishi mumkin.

#### 3.2. Ijrochining majburiyatlari:

Belgilangan muddatlarda chiqindilarni olib ketishni amalga oshirish:

"BUYURTMACHI"ga qattiq va/yoki suyuq maishiy chiqindilarni olib ketish xizmatlarini qonunchilikda va shartnomada belgilangan tartibda sifatlí xizmatini kórsatish;

"BUYURTMACHI"ning sórovlarini qonun yoki shartnomada belgilangan muddatlarda bajarish;

Qattiq va/yoki suyuq maishiy chiqindilarni olib ketish xizmatlari uchun elektron tóloviga shaxsiy hisob holatini Real vaqtda kuzatish tizimini joriy etish;

Qattiq va/yoki suyuq maishiy chiqindilarni olib ketish bóyicha xizmatlar tartibi va sifati bóyicha "BUYURTMACHI"ning shikoyatlari (arizalari, talablari, davolari)ning hisobini yuritish, va ijrosini tamiynlash;

"BUYURTMACHI" buyurtmasiga kóra qurilish chiqindilarini va agrotexnik ishlaridan keyin qolgan chiqindilarni olib ketish bóyicha qóshimcha haq tólangan holda qóshimcha transport xizmatini kórsatish.

Barcha chiqindi yig'ish punktlari (ChYP) va konteynerlar holati ustidan kuzatuv órnatish va ularning to'g'ri ishlatish holatini táminlash;

"BUYURTMACHI"ning talabiga binoan QMCh yig'ish uchun kerakli miqdordagi konteynerlar bilan táminlash;

Chiqindilarning ommaviy tóplanishiga va odamlarning hayoti, sog'lig'iga va atrof-muhit uchun xavfli bólgan bakteriyalar va boshqa zararli moddalarning rivojlanishiga qarshi kurashish uchun tizimli ish olib borish (konteynerlarni dezinfeksiya qilish yoki yuvish, axlat yig'ish nuqtalari va boshqalar.);

Hosil bólgan chiqindilarni xisob-kitobini yuritish;

Belgilangan tartibda saralangan maishiy chiqindilarni xom-ashyo qabul qilish uchun ixtisoslashtirilgan korxonalariga yetkazib berishni táminlash;

Qattiq va/yoki suyuq maishiy chiqindilarni olib ketish bóyicha tariflarda va xizmatlar taqdim yetish tartibidagi ózgarishlar haqida kuchga kirishidan 15 kun oldin ommaviy axborot vositalari orqali va "IJROChI"ning abonent punktlarida xabar reklamalarni osib qóyish orqali "BUYURTMACHI"ga xabar berish;

"BUYURTMACHI"ga taqdim etilayotgan xizmatlar sifatining buzilishini oldini olish va bartaraf yetish chora-tadbirlarini kórish;

Istemolehiga maishiy chiqindilarni olib ketish xizmatlari uchun tólovlarning holati haqida bepul málumot berish, shuningdek kórsatilgan xizmatlar uchun haq tólashda boqimandalik yoqligi haqida málumot berish;

SanPiN RUZ#0297-11 muvofiq konteynerlar dezinfeksiyasini amalga oshirish.

#### 3.3. "BUYURTMACHI"ning huquqlari:

Mol-mulkiga zarar yetkazmasdan, uning hayoti va sog'lig'i uchun xavfsiz, belgilangan sifatda, zarur hajmda xizmatlar olish;

"IJROChI" (KR «Toza xudud» DUK filiallari) aybi bilan xizmat kórsatishdagi kamchiliklarni óz hisobidan bartaraf yetishni va (jarima yoki penya) tólashni talab qilish;

"IJROChI"dan (KR «Toza xudud» DUK filiallari) qattiq va suyuq chiqindilarni olib ketish uchun xizmatlar hajmi va sifati, xizmatlar kórsatish shartlari, kommunal va tólov uchun tólov ólchamlari haqida málumot olish, shuningdek, elektron tólov



tizimi orqali qattiq va/yoki suyuq chiqindilarni olib chiqish xizmatlari uchun tólovlarni amalga oshirish va real vaqtda hisob holatini kuzatish;

Shartnoma majburiyatlari sifatsiz bajarilgan taqdirda yozma yoki telefon orqali "IJROChI" ga (KR «Toza hudud» DUK filiallari) shikoyat taqdim etish va "IJROChI" dan (QR «Toza hudud» DUK filiallari) sifatsiz xizmat kórsatilganligini tasdiqlovchi dalolatnoma tuzishni, va belgilangan vaqt oraligida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishni talab qilish;

"IJROChI" (QR «Toza hudud» DUK filiallari) aybi bilan xizmat kórsatishdagi kamchiliklarni biy pul bartaraf yetishni va shartnomada kórsatilgan miqdorda jarima tólashni talab qilish;

Ishlab chiqarish faoliyati hujjatlar bilan tasdiqlangan holda vaqtincha tóxtatilib turilgan yoki xizmat kórsatmagan davri uchun qattiq va / yoki suyuq maishiy chiqindilarni olib ketish xizmatlar uchun tólov majburiyatidan tóliq yoki qisman ozod qilinishi;

"IJROChI" (QR «Toza hudud» DUK filiallari) tomonidan óz vaqtida shartnomada belgilangan vazifalarini amalga oshirmaganlik yoki sifatsiz xizmat kursatgani uchun sudga murojat etish va zararlarni qoplashni talab qilish;

Normativ-huquqiy hujjatlarda, qattiq va/yoki suyuq chiqindilarni olib ketish bóyicha xizmatlar kórsatish shartnomasida nazarda tutilgan boshqada huquqlarni amalga oshirish;

### 3.4. "BUYURTMACHi" ning majburiyati:

Shartnoma shartlarini bajarish;

QMCh tóplash órinlarini moslashtirish va chiqindi tóplash konteynerlarini qurilish chiqindilari bilan tóldirishni, katta-hajmda chiqindilarni yuklashni taqiqlash, shuningdek ularning chiqarilishini alohida shartnoma va tólov asosida táminlash;

Sirtqi yoruglashtirishni va chiqindilarni saqlash joyiga tosiqsiz kirishini táminlash hamda chiqindi saqlash joyining uzliksiz ishlashini kuzatib borish;

QMCh olib ketish jadvali va marshrut jadvali bajarilmagan barcha holatlarni nazoratga olish va bu haqida "IJROChI" (QR «Toza hudud» DUK filiallari) ni telefon orqali xabardor qilish: \_\_\_\_\_;

"IJROChI" (QR «Toza hudud» DUK filiallari) ning bajarilgan ishlar tugrisidagi dalolatnomalarida óz vakili imzosi va korxonalar muhri bilan ish xajmi bajarilganligini tasdiqlash;

Har oyning boshida ótgan oy uchun bajarilgan ishlar tugrisida dalolatnomalar tuzish;

Ótgan oy uchun bajarilgan ishlar dalolatnomalari asosida joriy oy oxiriga qadar har oyda rejalashtirilgan ish summasining 100% miqdorida oldindan tólovni hisobga olgan holda "IJROChI" (QR «Toza hudud» DUK filiallari) hisob-raqamiga pul mablaglarini ótkazish;

Konteynerlarda yigish tizimida - axlat yigish nuqtalarida qattiq chiqindilar turiga kóra chiqindilarni paketlarda tegishli konteynerlarga joylashtirish;

Chiqindi yigib utilitatsiya qilish uchun belgilanmagan joylarga kóchaga, suv tarmoqlariga, ariqlarga, shuningdek harakatlanib kelayotgan transport vositalaridan yólga qattiq maishiy chiqindilarni tashlamaslik;

Poligonlardan tashqari hududda, hovlilarga, tomorqa yerlariga, boqlarga va boshqa joylarga qattiq maishiy chiqindilarni kómilishiga yól qóymaslik.

## 4. SHARTNOMA MAJBURIYATLARINI BAJARMAGANLIK YOKI NOTÓGRI BAJARGANLIGI UCHUN TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

### 4.1. "BUYURTMACHi":

Shartnomaviy majburiyatlarini bajarmaslik yoki tegishli tartibda bajarmaslik;

Qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib ketish xizmatlar uchun óz vaqtida tólovni amalga oshirmaslik;

Qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni shartnoma shartlarida nazarda tutilgan qatdiy belgilangan joylarda tóplash tartibini buzganlik uchun javobgar.

### 4.2. "IJROChI":

Qattiq va suyuq chiqindilarni olib ketish xizmatini kórsatish muddatlarini buzganligi va xizmatlarni kórsatishdagi kamchiliklarni óz vaqtida bartaraf etmagani;

Xizmat kórsatish muddatlarini buzganligi va kamchiliklarni óz vaqtida bartaraf etmaganligi uchun jarima óz vaqtida tólanmagani;

Óz zimmasidagi qóriqlanadigan va qóriqlanmaydigan chiqindilarni yigish punktlaridagi konteynerlarning texnik holati;

Xizmat kórsatmaslik yoki sifatsiz kórsatilgan xizmati tufayli xodimlarning hayoti, sogligi va istemolchining mol-mulkiga yetkazilgan zarar uchun javobgar.



Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, Хужжат коди: IT08718671

4.3. Tараflarning ushbu shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq qo'llaniladi.

4.4. Tólash taraflarni ózlariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan va buzilishlarni baxsharaf etishdan ozod qilmaydi.

## 5. SHARTNOMA MUDDATI

5.1. Taraflar shartnomani imzolagandan yoki Óaznachilikda róyxatdan ótkan kundan boshlab xarakatga kiradi va amal qilish muddati "\_31" \_dekabr \_2022 \_yilgacha.

5.2. Agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ushbu bitim predmeti bilan bevosita bog'liq bólgan ózgartirishlar kiritilgan taógdirda, tomonlar qóshimcha shartnomalar tuzish yóli bilan ushbu shartnomaga tegishli ózgartirish yoki qóshimchalar kiritadilar.

5.3. Shartnoma muddati tugashidan bir oy oldin tomonlardan birining uni rad etish yoki qayta kórib chiqish haqidagi murojaat kelib tushmasa, shartnoma kelgusi yilga uzaytirilgan bulib xisoblanadi.

5.4. Bu shartnoma teng yuridik kuchga ega bólgan 2 nusxada tuziladi.

## 6. NIZOLARNI HAL ETISH

6.1. Tomonlar órtasida kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar, muzokaralar yóli bilan hal qilinadi.

Tadbirkorlik shartnomalarini tuzish, ijro etish, ózgartirish va bekor qilish, shuningdek zararni qoplash choóigida tomonlar órtasida kelib chiqadigan nizolar O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot sudi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kórib chiqiladi.

## TOMONLARNING HUQUQIY MANZILLARI:

"IJROCHI"

"BUYURTMACHI"

QR «Toza hudud» DUK  
Nukus shaxri Berdax guzart r/u  
X/R 2021 0000 4007 8129 7001  
Bank: AK «Xaliq bank»  
INN: 304 937 594 MFO: 00638  
OKED: 38110 Tel: 224-25-23

Shomanay rayoni mektepke shekemgi  
bilimlendiriv bolimi

Manzil:Ozbekstan-  
82 yi  
Tel/Faks 346-12-39  
X/R\_23402000300100001010  
Bank Toshkent shahar markaziy bank MFO 00014  
L/S 100022860352437091100251010  
Moliya bazirli giyagona gazna xisob  
varagi  
INN201122919

O.Genjebaev



F.Ubaydullaev

(F.LSH)

M.O.



IT08718671

**Shumanoy tumani Yuridik xizmat ko'rsatish markazining Yuridik ahamiyatga ega hujjatlarning Qonun hujjatlariga muvofiqligi haqidagi huquqiy hulosa**

**1. Loyiha turi:** shartnoma

**2. Loyiha mazmuni:** Shumanoy tumani maktabgacha ta'lim bo'limi bilan QR «Toza hudud» DUK o'rtasidagi 2022-yil 26-yanvar kungi №4/1-sonli kelishuv shartnomasi

**3. Loyiha ishlab chiqish va kiritilganligi sana haqida ma'lumot:**  
2022-yil 26-yanvar kungi №4/1-sonli shartnoma

**4. Loyihani qabul qilish maqsadga muvofiq.**

